

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov, B.J.Mavlanov, O.T.Mamatqosimov O'zbekistonda <i>Hordeum Bulbosum</i> L. ning hosildorlik ko'rsatkichlari	137
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov <i>Eurydema</i> Laporte, 1833 (Hemiptera: Pentatomidae) avlodining mavsumiy rivojlanishi va ozuqa o'simliklariga ixtisoslashuvi	148
A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov Navoiy viloyati Konimex tumanida <i>Ferula varia</i> (Schrenk) Trautv. ning tabiiy resurslari	153
M.X.Akbarova Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining areal tiplari tahlili	166
X.S.Umurzaqova, G.M.Zokirova <i>Euzophera Bigella</i> Zeller, 1848 (Lepidoptera, Pyralidae) turining morfobiologiyasi.....	172
E.A.Ergashev Osh tuzining turli konsentratsiyali eritmalarida kristallanish tuzilishi va ularning buyrak toshi shakllanishidagi ahamiyati	178
S.Q.Kimyonazarov Markaziy Farg'ona mevali bog'larida uchrovchi barg o'rarlar (Lepidoptera: Tortricidae) haqida	183
E.A.Ergashev So'lak tomchilarining kristallanish zonalarida morfologik elementlar va faza o'zgarishlarining shakllanishi	188

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, A.F.Raxmatov Surxondaryo viloyatini lanshaft turlariga ajratish va uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	193
Sh.Z.Jumaxanov, A.M.Toshpo'latov Farg'ona mintaqasi: iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar	198
J.A.Namozov, M.M.Mirislomov Jahonda ekologik turizm rivojlanishining regional tahlili	210
I.K.Aripov Sirdaryo viloyatidagi botqoqlangan aholi punktlari	216

ILMIY AXBOROT

I.Adashev Bo'lajak pedagoglarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	222
Z.A.Ergasheva Ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashuvining ijtimoiy-falsafiy nazariyalari tahlili	228
I.Adashev Informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash asosida rivojlantirishning ahamiyati.....	232
V.A.Giyosova Murojaatning sotsiologik tabiati	236
D.M.Zaripova Public relations: the key to Enhancing university global rankings and reputation.....	241
A.I.Tuychiyev Sport va turizm jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining asosiy vositasi	248
S.Sh.Rasulov "Qishloq xo'jaligi axborot kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron dasturiy ta'minotdan foydalanish metodikasi.....	251
S.A.Rahmonberdiyeva Ingliz va o'zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarning diaxronik tadqiqi	255
Q.M.Xakimov Voleybol jamoaviy sport o'yinlarining talabalarda hamkorlikda muvaffaqiyatga erishishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar	261
D.M.Azimova Buxgalteriya hisobi va audit terminlarining leksik-semantik tadqiqi.....	264



UO'K: 911 (575)

FARG'ONA MINTAQASI: IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIK TADQIQOTLAR

ФЕРГАНСКИЙ РЕГИОН: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

FERGANA REGION: ECONOMIC AND SOCIAL GEOGRAPHIC RESEARCH

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich¹ ¹Namangan davlat universiteti geografiya kafedrasini dotsenti, geografiya fanlari doktori (DSc)Toshpo'latov Abduqodir Maxammadjon o'g'li² ²Andijon davlat universiteti geografiya kafedrasini tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining O'zbekistonda mahalliy olimlar tomonidan rivojlantirilishi Farg'ona mintaqasi misolida xronologik jihatdan tahlil etilgan, sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlari ajratilgan, tadqiqotlarning frontal va lingvistik tarkibi ochib berilgan. Mintaqada faoliyat olib borgan marhum fan darg'alari, hozirda faol tadqiqotlar olib borayotgan olimlar faoliyati keltirib o'tilgan. Ushbu maqola iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosliklari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchilar uchun nazariy-metodologik qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin.

Аннотация

В данной статье анализируется развитие экономической и социальной географии как научной дисциплины в Узбекистане, с особым акцентом на Ферганский регион с хронологической точки зрения. Подчеркиваются основные направления научных исследований, проводимых в этой области, а также раскрывается фронтальный и лингвистический состав исследований. Обсуждаются деятельности ушедших из жизни учёных, внесших вклад в эту область в регионе, а также работа активных исследователей в настоящее время. Эта статья может служить теоретическим и методологическим руководством для тех, кто занимается научными исследованиями в области экономической и социальной географии и региональных экономических специальностей.

Abstract

This article analyzes the development of economic and social geography as a scientific discipline in Uzbekistan, specifically focusing on the Fergana region from a chronological perspective. It highlights the main directions of scientific research conducted in the field and reveals the frontal and linguistic composition of the studies. The activities of deceased scholars who have contributed to the field in the region, as well as the current work of active researchers, are discussed. This article serves as a theoretical and methodological guide for those engaged in scientific research related to economic and social geography and regional economic specialties.

Kalit so'zlar: ilmiy tadqiqot, ilmiy rahbar, dissertatsiya, ilmiy kengash, ilmiy daraja – fan doktori (DSc), fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), ilmiy jurnal, iqtisodiy rivojlanish.

Ключевые слова: научное исследование, научный руководитель, диссертация, академический совет, ученая степень – доктор наук (DSc), научное звание, доктор философии (PhD), научный журнал, экономическое развитие.

Key words: scientific research, scientific advisor, dissertation, academic council, academic degree – Doctor of Science (DSc), scientific title, Doctor of Philosophy (PhD), scientific journal, economic development.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va mintaqaviy integratsiya sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani mintaqaviy darajada o'rganish alohida ahamiyatga ega. Mintaqaviy tadqiqotlar mamlakatimizning muayyan hududlarida sodir bo'layotgan jarayonlarni chuqurroq o'rganish, o'ziga xos xususiyatlar va muammolarni aniqlash, barqaror rivojlanish uchun samarali yechimlarni taklif qilish imkonini beradi. Urbanizatsiya, iqlim o'zgarishi va texnologik innovatsiyalar kabi dinamik

GEOGRAFIYA

o'zgarishlar va muammolar davrida mintaqaviy farqlar va o'ziga xosliklarni tahlil qilish strategik rejalashtirish va siyosatni ishlab chiqishning asosiy elementiga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyot tuzilmasi, demografik tendensiyalar va ijtimoiy sohada sezilarli o'zgarishlar kuzatilayotgan Markaziy Osiyodagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi. O'zbekiston mintaqaning eng yirik davlatlaridan biri sifatida har birining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy rayonlarning xilma-xilligini namoyon etadi. Ana shunday hududlardan biri mamlakatimizning sharqiy qismida joylashgan Farg'ona iqtisodiy rayonidir.

Farg'ona iqtisodiy rayoni boy tarix, qulay tabiiy sharoit va salmoqli iqtisodiy salohiyatga ega. Shu bilan birga, u demografik bosim, infratuzilmani modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sishning yangi yo'llarini topish zarurati kabi qator muammolarga ham duch kelmoqda. Ushbu hududning rivojlanishini tahlil qilish nafaqat mavjud vaziyatni baholash, balki uning aholisi farovonligini oshirishga yordam beradigan keyingi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqola Farg'ona iqtisodiy rayonining iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini har tomonlama tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va barqaror o'sish strategiyasini taklif etishga e'tibor qaratishdan iborat.

Mintaqa mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani rivojlanishida ham o'ziga xos o'ringa ega [3]. Bu mintaqada an'anaviy holda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yer-suv resurslaridan foydalanish, aholi geografiyasi va demografiya, shaharlar geografiyasi va geourbanistika, sanoat geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi, transport geografiyasi, servis sohalari geografiyasi, turizm geografiyasi, siyosiy geografiya, sotsial geografik tadqiqotlar kabi yo'nalishlar shakllangan.

Mazkur maqolaning **maqsadi** O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibini Farg'ona mintaqasi misolida yoritib berish bo'lib, unda asosiy e'tibor mahalliy olimlarning ilmiy faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olingan:

- Farg'ona mintaqasida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarning mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- mintaqada amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarni xronologik jihatdan tahlil qilish;
- bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlari, fronal va lingvistik tarkibini o'rganish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid dastlabki tadqiqotlar rus olimlari nomi bilan bevosita bog'liq [8]. Ularning beqiyos ilmiy izlanishlari va mintaqaviy tadqiqotlari natijasida yirik monografik asarlar yaratilgan, tarmoqlar geografiyasi takomillashtirilgan, iqtisodiy geografik o'rin imkoniyatlari atroflicha ochib berilgan, mintaqalarning xususiyatlariga bog'liq tarzda hududiy mehnat taqsimotining vujudga kelishi va ixtisoslashuvning tarkib topishi natijasida iqtisodiy rayonlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

O'zbekistonda geografiya ilmining hududiy xususiyatlari dastlab professor A.S.Soliyev tomonidan tahlil etilgan [4]. Unda tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid tadqiqotlar umumiylikda berilgan. Keyinchalik, V.N.Fedorko, Sh.B.Qurbonov, M.I.Nazarov tomonidan chop etilgan risolada, asosan, O'zbekiston Milliy universitetida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi atroflicha yoritib berilgan [7]. Ushbu maqola mamlakatimizning barcha mintaqalarida amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar tahlilining ikkinchi qismini o'zida aks ettirgan bo'lib, yirik ilmiy markazlardan biri – Farg'ona mintaqasiga bag'ishlangan.


Farg'ona mintaqasining umumgeografik vaziyati vazmin, tabiati nozik, unga atropogen bosimning ta'siri kuchli, geosiyosiy o'rni ham o'ziga xos [5]. Bunday holatda yer-suv va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, geoekologiya, ijtimoiy geografik tadqiqotlar – aholiga xizmat ko'rsatish, uning bandligini ta'minlash, transport va boshqa infratuzilmani rivojlantirishning hududiy jihatlari mintaqaviy geografik tadqiqotlarining ustivor yo'nalishlaridan hisoblanadi [6]. Mintaqa olimlarining ilmiy izlanishlar tahlili istiqbolda bajariladigan ilmiy tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajarishini hech kimga sir emas.

Mintaqada faoliyat olib borgan marhum olimlar – O.Abdullayev, M.Yusupov, M.Valixonov, A.Jalilov, T.N.Mallaboyev, A.M.Xatamov, R.B.Qodirov va boshqalarning ilmiy ishlari ilm-fan olamida zalvarli o'ringa ega.


Hozirgi kunda faol tadqiqotlar olib borayotgan – A.Q.Haydarov, Y.I.Ahmadaliyev, M.J.Maxmudova, Sh.Z.Jumaxanov, X.S.Mirzaaxmedov, M.Mamajonov, A.S.Baratov, A.A.Isayev, D.G.Mo'minov, N.O.Komilova, X.A.Abduvaliyev, Z.A.Temirov, M.M.Atajanov, X.O.Abdinazarova, E.G.Mahkamov, Z.X.Madaminov, M.O.Gapirov, Z.L.Abduvaliyeva kabi olimlarning ishlarida ko'rish mumkin.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Shu paytga qadar Farg'ona mintaqasi olimlari tomonidan bajarilgan va muvaffaqiyatli himoya qilingan ilmiy ishlarning umumiy soni 29 ta bo'lib¹, ularning 1/7 qismi fan doktori, 1/2 qismi fan nomzodi va 1/3 qismi geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan ishlarga to'g'ri keladi (1-rasm).



1-rasm. Dissertatsiya ishlarining ilmiy darajalar bo'yicha tarkibi



2-rasm. Dissertatsiya ishlari himoya qilingan shaharlar

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday tadqiqotlarning har bir hudud uchun o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunonchi, Farg'ona mintaqasi iqtisodiy geografik tadqiqotlarda Toshkent mintaqasidan keyingi mavqega ega. Farg'ona vodiysini iqtisodiy va ijtimoiy geografik o'rganishda vodiya joylashgan oliy ta'lim muassasalarining o'rnini alohida e'tirof etish lozim.

Mintaqadagi oliy ta'lim muassasalaridan – Farg'ona davlat universiteti², Namangan davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Namangan davlat pedagogika instituti, Andijon davlat pedagogika institutida iqtisodiy geograf olimlar ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda samarali mehnat qilishmoqda.

Jumladan, so'nggi besh yilda 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha himoya qilingan PhD dissertatsiyalarining 4 tasi FarDU, 4 tasi ADU va 1 tasi QDPI kabi oliy o'quv yurtlari tadqiqotchilari tomonidan bajarilgan. Mintaqa olimlaridan ikki nafari (Mamajanov M., Maxmudova M.J.) fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lsa-da, professor ilmiy unvoniga ega.

Mintaqada faoliyat olib borgan olimlar dissertatsiya himoyasining hududiy tarkibida mamlakatimizdagi ilmiy kengashlarning alohida o'rnini bor. Jumladan, mustaqillikka qadar yoqlangan ilmiy ishlarning 2 tasi Moskva va 3 tasi Leningrad (keyinchalik Sankt-Peterburg) shaharlarida himoya qilingan [12]. O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengashlarda shu paytga qadar jami 18 ta dissertatsiya himoyasi amalga oshirilgan bo'lib, ulardan 2 tasi mustaqillikka qadar, qolgan 16 tasi istiqloq yillariga to'g'ri keladi [11]. Keyingi yillarda (2019-

¹ Ilmiy tadqiqotlar tarixi va ilmiy ishlar xronologiyasini to'liq ochib berish juda murakkab va chuqur tahlillarni talab qiluvchi jarayon ekanligini hisobga olgan holda, maqola mualliflari ishda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha amalga oshirilgan barcha ilmiy tadqiqot ishlari to'la qamrab olingan, deyishdan yiroq.

² Universitet huzurida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ro'yxatidagi «FarDU ilmiy xabarlar» ilmiy jurnali muntazam nashr etiladi.

GEOGRAFIYA

yili) Samarqand shahrida ochilgan Ilmiy Kengashda 1 ta DSc va 5 ta PhD dissertatsiya himoyasi o'tkazilgan (2-rasm).

Farg'ona mintaqasida mahalliy olimlar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarning lingvistik tarkibida o'zbek tili (21 ta) mutloq ustunlik qiladi. Rus tilida tayyorlangan ilmiy ishlarning soni esa 8 tani tashkil qiladi.

1-jadval

Farg'ona mintaqasida fan doktori ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar

No	Dissertant ismi, sharifi va familiyasi	Dissertatsiya mavzusi	Himoya qilgan yili
1	Y.I.Ahmadaliyev	Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish (Farg'ona vodiysi misolida)	Toshkent, 2007
2	R.B.Qodirov	O'zbekiston Respublikasining Farg'ona vodiysi viloyatlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari	Toshkent, 2021
3	Sh.Z.Jumaxanov	Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari	Toshkent, 2023
4	A.A.Isayev	O'zbekistonda transportdan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish	Samarqand, 2024

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan shakllantirilgan

Mintaqada bajarilgan doktorlik dissertatsiyalari turli yo'nalishlarda bajarilganligi bilan ajralib turadi. Asosan, tarmoqlar geografiyasiga oid tadqiqotlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Jumladan, yer resurslaridan foydalanish, aholi geografiyasi va geourbanistika, anklav hududlar geografiyasi, transport geografiyasiga oid doktorlik ishlari himoya qilingan (1-jadval).

Farg'ona vodiysi jahondagi aholisi eng zich mintaqalardan biri hisoblanadi. Tabiiyki, bunda antropogen bosim yuqori bo'ladi. Natijada, resurslardan samarali va oqilona foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Chunonchi, mintaqada ilk doktorlik dissertatsiya ishi qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish yuzasidan bajarilgan bo'lib, professor A.S.Soliyev [2] ilmiy rahbarligida 2007-yili **Y.I.Ahmadaliyev** tomonidan muvaffaqiyatli himoya qilingan. Olimning nomzodlik ishi Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor A.I.Chistobayev ilmiy rahbarligida 1993-yili Sankt-Peterburg shahrida yoqlangan bo'lib, Andijon viloyatining tog' oldi tekislik yerlaridagi muammolar va ulardan oqilona foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Bugungi kunda Y.I.Ahmadaliyev nafaqat mintaqada, balki butun mamlakatdagi eng sermahsul faoliyat olib borayotgan olimlardan biri hisoblanadi. Xususan, olim o'ndan ortiq DSc, nomzodlik va PhD dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan. Jumladan, ularning tarkibiga nazar solsak, mintaqaning o'zida 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha 6 nafar olimlar – D.G'.Mo'minov nomzodlik; N.O'.Komilova, X.A.Abduvaliyev, M.M.Atajanov, E.G'.Maxkamov, Z.X.Madaminovlar PhD dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan. Farg'ona mintaqasidan tashqarida ham olim rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, 2024-yil Janubiy O'zbekiston iqtisodiy rayonidan M.A.Fayzullayev 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha DSc dissertatsiyasini himoya qildi. Bundan tashqari, professor rahbarligida 11.00.01 – Tabiiy geografiya ixtisosligi bo'yicha P.S.Otaqulov (PhD, 2021) va N.N.Alimdjanov (PhD, 2022); 11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ixtisosligi bo'yicha O.I.Abdug'aniyev (DSc, 2023) ilmiy darajalarga ega bo'lishgan.

Farg'ona iqtisodiy rayoni aholisi, mintaqadagi demografik vaziyat, mehnat resurslarining shakllanishi va ularning iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi, aholisi zich hududlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish kabi masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar **R.B.Qodirov** ilmiy faoliyati bilan bog'liq. Jumladan, olim 2003-yili professor A.A.Qayumov ilmiy rahbarligida Andijon viloyati misolida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida mehnat resurslaridan

foydalanishning hududiy jihatlariga bag'ishlangan nomzodlik; 2021-yili O'zbekiston Respublikasining Farg'ona vodiysi viloyatlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish muammolari tahlil etilgan doktorlik ishini muvaffaqiyatli yoqlaydi. Olim amalga oshirgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mehnat resurslarining katta potentsiali yig'ilgan Farg'ona vodiysi viloyatlarining geodemografik rayonlashtirish kartasi ishlab chiqilganligi, yer-suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi hamda industrial rivojlanish o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik asoslanganligi, aholi va mehnat resurslarining 2025–2050-yillarga mo'ljallangan prognozi ishlab chiqilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Olim ilmiy rahbarligida 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha Z.A.Temirov 2022-yili PhD dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri davlatlar o'rtasida o'ta keskin siyosiy kurashlar, qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'layotgan anklav/eksklav, hududiy nizo va chegara muammolari hisoblanadi. Hududiy nizolar va ularni bartaraf etish borasidagi xalqaro amaliyotda anklav muammolarini hal etish o'ziga xos o'rin tutadi. Ayni shunday masalalarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar **Sh.Z.Jumaxanov** tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, olim 2023-yili Markaziy Osiyo anklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish mavzusida bajarilgan bo'lib, unda mintaqa anklav hududlarini iqtisodiy va siyosiy geografik rivojlanishiga xos hududiy xususiyatlarini aniqlangan, o'zaro hududiy munosabatlar tizimini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Sh.Z.Jumaxanov professor A.S.Soliyev ilmiy maktabining vakili bo'lib, 1998-yili Namangan viloyati aholisi hududiy tarkibini takomillashtirish mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Uning keyingi faoliyati yuqorida keltirib o'tilganidek, geosiyosiy jarayonlar va siyosiy geografiyaga bag'ishlanadi.

Respublikamizda transport-logistika tizimini jahon standartlariga moslashtirish, xalqaro ahamiyatdagi transport koridorlarining o'tkazish qobiliyatini oshirish, yangi arzon va qisqa transkontinental tranzit koridorlarini shakllantirish, shuningdek, mintaqa mamlakatlarining jahon transport tizimi bilan o'zaro uyg'unlikdagi rivojlanishiga oid izlanishlar professor A.S.Soliyev ilmiy maktabining yana bir vakili **A.A.Isayev** tomonidan amalga oshirilgan. Olim 2009-yili Farg'ona vodiysi transport rivojlanishining geografik jihatlar mavzusida nomzodlik; 2024-yili O'zbekistonda transportdan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish mavzusida DSc dissertatsiyasini yoqlaydi. Olim tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi transport markazlari va tugunlariga ajratilganligi, viloyatlarining transportdan foydalanish imkoniyatlarini baholash metodikasi ishlab chiqilganligi, mintaqalar avtomobil va temiryo'l transporti rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq etish metodologiyasi takomillashtirilgani, O'zbekistonning transport kartalari ishlab chiqilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mintaqa olimlari tomonidan hozirgacha bajarilgan nomzodlik va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni 25 tani tashkil etadi [11]. Ularning ichida keyinchalik fan doktori ilmiy darajasini olgan olimlardan tashqari 20 ta fan nomzodlari (11 ta) va falsafa doktorlari (9 ta) mavjud (2-jadval). Shuningdek, professor O.Abdullayev doktorlik dissertatsiyasini iqtisod fanlari ixtisosligi bo'yicha bajargan.

2-jadval

Farg'ona mintaqasida fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar


No	Dissertant ismi, sharifi va familyasi	Dissertatsiya mavzusi	Himoya qilgan yili
1	M.Yusupov	Andijon viloyatining iqtisodiy-geografik xarakteristikasi	Toshkent, 1958
2	M.Valixonov	So'x vohasining iqtisodiy geografik xarakteristikasi	Toshkent, 1963
3	A.Jalilov	Пути совершенствования аграрно-промышленного комплекса Ферганской области	Moskva, 1979
4	T.N.Mallaboyev	Большие города в система расселения в Ферганской долине	Moskva, 1982

GEOGRAFIYA


5	O.Abdullayev	Территориальная организация отраслей животноводства Ферганской долины Узбекской ССР и проблемы её дальнейшего совершенствования	Leningrad, 1983
6	A.M.Xatamov	Обоснование приоритетов развития сельской социальной инфраструктуры в трудоизбыточных районах (на материалах Ферганской долины Узбекской ССР)	Leningrad, 1988
7	A.Q.Haydarov	Формирование и развитие промышленных узлов Ферганского экономического района Узбекистана	Toshkent, 1992
8	Y.I.Ahmadaliyev	Предгорно-равнинные земли Андижанской области: проблемы и пути рационального использования	Sankt-Peterburg, 1993
9	M.J.Maxmudova	Проблемы развития и совершенствования территориальной организации садоводства и виноградарства Ферганской долины (на материалах Узбекистанской части)	Toshkent, 1993
10	Sh.Z.Jumaxanov	Namangan viloyati aholisi hududiy tarkibini takomillashtirish	Toshkent, 1998
11	X.S.Mirzaaxmedov	Sanoatda qo'shma korxonalarni hududiy tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlari (Namangan viloyati misolida)	Toshkent, 2003
12	R.B.Qodirov	Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida mehnat resurslaridan foydalanishning hududiy jihatlari (Andijon viloyati misolida)	Toshkent, 2003
13	M.Mamajonov	Andijon viloyati aholisini ijtimoiy muhofaza qilishning geografik jihatlari	Toshkent, 2004
14	A.S.Baratov	Namangan viloyatida suv xo'jaligini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish masalalari	Toshkent, 2007
15	A.A.Isayev	Farg'ona vodiysi transport rivojlanishining geografik jihatlari	Toshkent, 2009
16	D.G'.Mo'minov	Qishloq joylarning geoekologik – xo'jalik holati va uni takomillashtirish yo'llari	Toshkent, 2011

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan shakllantirilgan

Mintaqada nomzodlik dissertatsiyalari – *iqtisodiy geografiya* (tabiiy resurslar geografiyasi, sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, agrogeografiya), *ijtimoiy va sotsial geografiya* (aholi va aholi punktlari geografiyasi, geourbanistika, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish) va *kompleks iqtisodiy geografik tahlillarga* oid yo'nalishlarda bajarilgan (3-rasm).



3-rasm. Fan nomzodi dissertatsiya



4-rasm. Falsafa doktori (PhD)

ishlarining asosiy yo'nalishlari

dissertatsiya ishlarining asosiy yo'nalishlari

Farg'ona mintaqasida fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan marhum olimlar – *M.Yusupov, M.Valixonov, A.Jalilov, T.N.Mallaboyev, A.Hatamov* bo'lib, ularning ilmiy merosidan hozirga qadar samarali foydalanib kelinmoqda.

Shuningdek, taniqli fan nomzodlari – *M.J.Maxmudova, X.S.Mirzaaxmedov, M.Mamajonov, A.S.Baratov, D.G.Mo'minov* va boshqalar ilmiy va pedagogik faoliyatni faol davom ettirishmoqda. *A.Q.Haydarov* hozirda pensiyada bo'lib, farzand va nabiralar ardog'ida umrguzaronlik qilmoqda.

Farg'ona vodiysi aholisi va mehnat resurslari, ulardan samarali foydalanish yo'llari; qishloq xo'jaligi tarmoqlarini oqilona joylashtirish va rejalashtirish bo'yicha tadqiqotlar **M.Yusupov** ilmiy izlanishlarida ko'zga yaqqol tashlanadi [9]. Olim, asosan, iqtisodiy rayon sharqiy hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlariga e'tibor qaratgan bo'lib, 1958-yili Andijon viloyatining iqtisodiy-geografik tahlili asosida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Janubiy Farg'ona hududlarida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini oqilona joylashtirish va rejalashtirish, xususan, Qo'qon vohasining iqtisodiy geografik o'ziga xosliklarini yoritib berishda **M.Valixonov** tadqiqotlarining alohida o'rni bor. Olim o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab asosiy e'tiborini So'x daryo havzasiga qaratadi. Olib borilgan izlanishlar natijasini umumlashtirib, 1963-yili So'x vohasining kompleks iqtisodiy geografik tahlili bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Olimning ilmiy va pedagogik faoliyati davomida Farg'ona davlat pedagogika institutining Geografiya kafedrasining o'quv moddiy-texnik bazasi ancha yaxshilanadi. Olimning tashabbusi bilan Farg'ona davlat pedagogika instituti (hozirgi, FarDU) hamda Toshkent, Leningrad, Moskva, Kiyev shaharlaridagi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yaqindan aloqa o'rnatiladi.

Mintaqada o'tgan asrning oxirlariga kelib, aholi sonining tezlik bilan ortib borishi va qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishi agrosanoat majmuasini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni taqazo etadi. Shu jihatdan, **A.Jalilov** mazkur sohaga oid izlanishlarni olib boradi hamda 1979-yili professor T.M.Kalashnikov ilmiy rahbarligida Farg'ona viloyatida agrar sanoat kompleksini takomillashtirish yo'llari mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi.

Aholi va aholi punktlari, shaharlar rivojlanishining takomillashuvi, kichik hududlar geografiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda MDH va respublikamiz olimlari ichida **T.N.Mallaboyev** alohida o'ringa ega. Olib borilgan izlanishlar natijasi o'laroq, 1982-yili respublikamizning ikki taniqli olimlari – T.I.Raimov va A.S.Soliyev ilmiy rahbarligida Farg'ona vodiysi yirik shaharlarining aholi punktlari tizimida tutgan o'rni mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini Moskvada yoqlaydi. Olim mintaqalar geografiyasini o'rganish bilan birga, kichik hududlar (tuman, shahar, qishloq va mahalla) geografiyasini yaratishga katta e'tibor bergan. Chunki, har qanday katta hudud kichik hududlar tizimidan tashkil topishi va ulardagi mavjud tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar katta hududda o'z aksini topishi yoki aksincha bo'lishini asoslab bergan.

Professor Z.M.Akramov ilmiy maktabining mintaqadagi eng ko'zga ko'ringan vakili **O.Abdullayev** bo'lib, uning ilmiy izlanishlari agrosanoat tarmoqlarini tadqiq etishga bag'ishlanadi [1]. Chunonchi, olim 1983-yili Leningrad shahrida Farg'ona vodiysida chorvachilik tarmoqlarini hududiy tashkil etish va uni yanada takomillashtirish muammolari mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Keyingi izlanishlarida mintaqaviy iqtisodiyot asosiy o'rin tutadi hamda 1991-yili professor Q.Abirqulov ilmiy rahbarligida iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ladi. O.Abdullayev ilmiy rahbarligida 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha 2 nafar (Maxmudova M.J., Baratov A.S.) va 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha 2 nafar (Abdullayeva G., Sotivoldiyev N.J.) fan nomzodlari yetishib chiqqan.

Iqtisodiy rayondan yetishib chiqqan olimlarning aksariyati mintaqaning demografik salohiyati, cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlariga katta e'tibor qaratishgan. Zero, professor A.S.Soliyev ta'biri bilan aytganda, Farg'ona vodiysi strategik ahamiyatga ega mintaq bo'lib, vodiy "shamollasha" – butun O'zbekiston "yo'taladi". Chunonchi, mintaq misolida **A.M.Xatamov** Mehnatga resurslari ortiqcha hududlarda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini [9] rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari mavzusida 1988-yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, sanoatni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida hududiy tashkil etishni yangicha talqinda tadqiq etish zarurati vujudga keladi. Ayni paytda, ushbu

GEOGRAFIYA

masalaga bag'ishlangan ilk tadqiqot ikki zabardast olimlar – T.M.Raimov va A.S.Soliyev rahbarligida **A.Q.Haydarov** tomonidan bajariladi. Farg'ona iqtisodiy rayonidagi sanoat tugunlarining shakllanishi va rivojlanishiga bag'ishlangan ushbu dissertatsiya ishi 1992-yili muvafaqqiyatli himoya qilinadi. Unda sanoat punkti, sanoat markazi, sanoat tuguni va sanoat rayoni kabi hududiy shakllarning mohiyatiga e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, sanoat tugunlarining vujudga kelishida shaharlarning roliga alohida to'xtalib o'tilgan.

Istiqloq yillarida mamlakatimiz o'z milliy iqtisodiyoti bilan jahon xo'jaligida munosib o'rin egallashi yo'lida ulkan ishlar amalga oshiriladi. Chunonchi, agrosanoat majmuasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarga talab ortib ketadi. Xususan, ziroatchilikning muhim sohalari qatorida – bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish, mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarishda ilmiy asoslangan izlanishlar olib boriladi. Bunday tadqiqot **M.J.Maxmudova** tomonidan bajarilgan bo'lib, Farg'ona vodiysida bog'dorchilik va uzumchilikni hududiy tashkil etishni rivojlantirish va takomillashtirish muammolari mavzusida 1993-yili nomzodlik dissertatsiyasi sifatida yoqlangan. Natijada, M.J.Maxmudova mintqa olima ayollaridan birinchi bo'lib fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ladi. Keyinchalik, vodiylilik olimalar ichida professor ilmiy unvonini olishda ham birinchilardan bo'ladi.

O'tish iqtisodiyotidagi davlatlar uchun sanoat va qishloq xo'jaligi eng muhim sektorlar hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida sanoat korxonalarini tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonini rag'batlantirish hamda xalqaro aloqalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar **X.S.Mirzaaxmedov** izlanishlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Professor A.S.Soliyev ilmiy maktabining vakili sifatida X.S.Mirzaaxmedov 2003-yili Namangan viloyati misolida sanoatda qo'shma korxonalarini hududiy tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, dissertatsiyada iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishda iqtisodiyotga chet el investisiyalarini ko'proq jalb qilish, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirish va shu asosda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, qo'shma korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari atroflicha yoritib berilgan. Olimning keyingi tadqiqotlari O'zbekiston mintaqalarining investitsion jozibadorligi, zamonaviy sharoitda raqobatbardosh qo'shma korxonalarini tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqarishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Insoniyat XXI asrga qadam qo'yishi bilan uchlamchi sektor – nomoddiy soha, ayniqsa, aholiga xizmat ko'rsatish va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb eta boshlaydi. Demografik yuki og'ir va aholi zichligi yuqori Farg'ona mintaqasida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning geografik jihatlari **M.Mamajonov** tomonidan 2004-yili nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilingan. Olimning keyingi faoliyatida darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlash, o'lkashunoslik atlaslarini yaratishda jonbozlik ko'rsatish asosiy o'rin egallaydi. Ilmiy va pedagogik faoliyatining natijasi o'laroq, olim 2020-yili professor ilmiy unvoniga ega bo'ladi. M.Mamajonov ilmiy rahbarligida M.O.Gapirov (2023) PhD dissertatsiyasini himoya qilgan.

O'zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'orish va irrigatsiya-melioratsiya jarayonlarini takomillashtirishga oid izlanishlar haqida so'z borganda **A.S.Baratov** ilmiy tadqiqotlari alohida e'tirofga sazovor hisoblanadi. Olim professor O.Abdullayev ilmiy rahbarligida 2007-yili Namangan viloyatida suv xo'jaligini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini muvafaqqiyatli yoqlaydi. Tadqiqot natijalari orqali qishloq xo'jaligida suv resurslari va ulardan optimal foydalanish yo'llari, suv ta'minoti va me'yoriy ko'rsatkichlar, foydalanish koeffitsiyentini takomillashtirish bilan bog'liq konsepsiya va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mintaqada ishlab chiqarish tarmoqlari bilan geoekologik vaziyatni uyg'un tarzda tahlil etgan olimlari ichida **D.G'.Mo'minov** o'ziga xos o'ringa ega. Olim qishloq joylarning geoekologik – xo'jalik holati va uni takomillashtirish yo'llari borasida olib borgan ilmiy izlanishlarini 2011-yili nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qiladi. D.G'.Mo'minovning bundan keyingi izlanishlarida agrodemografik bosim g'oyalari asosiy o'rin egallaydi. Shuningdek, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish, tabiiy resurslarni oqilona boshqarish, aholi geografiyasi va demografiyaga oid tahlillar muhim ahamiyatga ega.

Farg'ona mintaqasi o'zining ilmiy salohiyati bo'yicha respublikamizda alohida o'ringa ega. O'zbekiston iqtisodiy rayonlari ichida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega olimlarning eng ko'p qismi, aynan, mazkur hududdan yetishib chiqqan (3-jadval).

3-jadval

Farg'ona mintaqasida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar

No	Dissertant ismi, sharifi va familyasi	Dissertatsiya mavzusi	Himoya qilgan yili
1	N.O'.Komilova	Etnoekologik madaniyatning geografik jihatlarini (Farg'ona vodiysi misolida)	Toshkent, 2019
2	X.A.Abduvaliyev	Aholining hududiy tashkil etilishini landshaft omili asosida takomillashtirish (Farg'ona vodiysi misolida)	Toshkent, 2020
3	Z.A.Temirov	Farg'ona vodiysi viloyatlarida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari	Toshkent, 2022
4	M.M.Atajanov	Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirish	Toshkent, 2022
5	X.O.Abduvohidov	Farg'ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoati hududiy tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish	Samarqand, 2022
6	E.G'.Maxkamov	Farg'ona viloyati tabiatidan rekreatsiya va turizm maqsadida foydalanishning geografik asoslari	Samarqand, 2022
7	Z.X.Madaminov	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni mintaqaviy xususiyatlari va takomillashtirish yo'llari (Farg'ona viloyati misolida)	Samarqand, 2023
8	M.O.Gapurov	Асакинский автомобильный завод: особенности территориально-отраслевого развития, влияния на экономику и трансформацию промышленности Ферганского региона	Samarqand, 2023
9	Z.L.Abduvaliyeva	Farg'ona vodiysi viloyatlari rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy geografik jihatlarini (sog'lomlashtirish maskanlari misolida)	Samarqand, 2024

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan shakllantirilgan

Farg'ona mintaqasida bajarilgan PhD dissertatsiyalarining asosiy qismi sotsial geografik tadqiqotlarga to'g'ri keladi. Aytish lozimki, respublika iqtisodiy geograflari orasida PhD ilmiy darajasiga ega olimlar soni bo'yicha Farg'ona mintaqasi oldingi o'rinlarni egallaydi.

Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida vujudga kelayotgan ijtimoiy-ekologik muammolarning etnogeografik ildizlari mavjudligi, bugungi ekologik muammolarni bartaraf etishda etnogeografik yondashuvning ahamiyatli ekanligini **N.O'. Komilova** asoslab bergan. Farg'ona vodiysi misolida etnoekologik madaniyatning geografik jihatlariga bag'ishlangan PhD dissertatsiyasi 2019-yilda himoya qilingan. Olima tadqiqotlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning strategik dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, aholining etnoekologik madaniyatini yuksaltirish, ta'lim tizimida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tahlillar amalga oshirilgan.

Oxirgi yillarda aholi punktlari demografik vaziyatini optimallashtirish, shaharlarning antropogen bosimini me'yorlashtirish, landshaftlarning tabiiy demografik imkoniyatlari aniqlash, aholi zich hududlarda aholi bandligini oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayni ushbu masalalar **X.A.Abduvaliyev** tadqiqotlarining asosini tashkil qiladi. Uning aholi hududiy tashkil etilishini landshaft omili asosida takomillashtirishga oid Farg'ona vodiysiga bag'ishlangan izlanishlari natijasi 2020-yili PhD dissertatsiyasi sifatida muvafaqqiyatli himoya qilingan. Unda

GEOGRAFIYA

tabiiy-landshaft omilining aholi joylashuviga ta'sirini baholashning ahamiyati, aholi zichligini ortishi natijisida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-ekologik muammolarning tabiiy-demografik asoslari mavjudligi, aholini joylashtirishda tabiiy-landshaft yondoshuvining zarurligi asoslangan. X.A.Abdualiyevning keyingi tadqiqotlarida asosiy e'tibor O'zbekistonda aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishning geografik jihatlariga qaratilgan.

Aholi haqida so'z borganda, demografik jarayonlarning hududiy jihatlariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Jumladan, aholi takror barpo bo'lishining hududiy xususiyatlarini aniqlash, aholi salomatligi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish, hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining demografik jarayonlarga ta'sirini o'rganish **Z.A.Temirov** izlanishlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Uning Farg'ona vodiysi viloyatlarida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlari 2022-yili PhD dissertatsiyasi sifatida yoqlangan. Chunonchi, dissertatsiyada Farg'ona vodiysi viloyatlarining o'ziga xos demografik jarayonlari, aholining nikohlanish jarayoni va tug'ilish koeffitsiyenti o'rtasidagi korrelyatsiya dinamikasi, demografik rayonlar aholisining 2040-yilgacha prognozi ishlab chiqilgan, olingan xulosalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, keyingi yillarda qishloq joylar aholisining turmush tarzini belgilovchi ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura obyektlarining yaratilishi aholi sonining o'sishidan bir necha barobar ortda qolishi kuzatilmoqda. Qishloq joylarda iqtisodiy rivojlanishning shaharlardan sezilarli ortda qolishi tufayli aholining shaharlarga rejalashtirilmagan holda, ommaviy ko'chib ketishi jarayoni tezlashmoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholi joylashishidagi inqiroziy nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Bunday dolzarb masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar **M.M.Atajanov** izlanishlari bilan bevosita bog'liq. Jumladan, qishloq joylarda ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirishga oid tahlillar Andijon viloyati misolida bajarilgan. Natijada, M.M.Atajanov falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini 2022-yili muvafaqqiyatli himoya qilgan. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati undagi qishloq joylar ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirishga qaratilgan yondashuv zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy-metodologik asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tabiiy resurslarining qisqarib borishi tabiat-aholi-xo'jalik o'rtasidagi munosabatlarda sun'iy materiallar – rezina va plastmassa buyumlari, maishiy kimyo, farmatsevtika, lok-bo'yoq, kosmetika kabi kimyo sanoati mahsulotlaridan foydalanish ortib bormoqda. Ayni shu turdagi tovarlarga ehtiyoj juda yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysida bunday izlanishlar **X.O.Abdinazarova** tomonidan amalga oshirilgan. Olimaning Farg'ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoati hududiy tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish mavzusida bajarilgan PhD dissertatsiyasi 2022-yili muvafaqqiyatli yoqlangan. Ishda kimyo sanoatida ekologik toza mahsulotlar yaratish, mahsulot hajmini matematik modellashtirish, prognozlash va shu asosda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan. Uning keyingi tadqiqotlari O'zbekiston farmatsevtika sanoatining hududiy xususiyatlariga bag'ishlangan.

Rekreasion-turistik faoliyat iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o'rinlarini yaratishda yetakchi va jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Chunonchi, rekreatsiya va turizm hech qanday siyosiy, mafkuraviy, geografik va madaniy chegaralarni bilmaydigan global miqyosidagi faoliyatga aylandi. Bugungi kunda rekreasion-turistik resurslar va hududning rekreasion-turistik salohiyatidan foydalanish hamda hududiy tashkil etish, kompleks baholash asosida rekreatsiya va turizmni rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada E.G'.Maxkamov tomonidan Farg'ona viloyati misolida olib borilgan izlanishlar ahamiyatli bo'lib, 2022-yili tabiatdan rekreatsiya va turizm maqsadida foydalanishning geografik asoslariga bag'ishlangan PhD dissertatsiyasi sifatida muvafaqqiyatli himoya qilingan. Ishda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik sharoitni rekreatsiya va turizm maqsadida baholash, uning turlarini aniqlash, rayonlashtirish, rekreasion-turistik imkoniyatlarini oshirish va rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi jarayonida ularning iste'mol tovarlariga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari ham yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, bu borada **Z.X.Madaminov** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni mintaqaviy xususiyatlari va takomillashtirish yo'llariga bag'ishlangan PhD dissertatsiyasi 2023-yili yoqlangan. Ishda iqtisodiyotni modernizatsiyalash

sharoitida mintaqaning iqtisodiy rivojlangan hududi – Farg‘ona viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘ziga xos muammolarini aniqlash va aholini iste‘mol mollari bilan ta‘minlashning iqtisodiy-ijtimoiy geografik jihatlari ochib berilgan.

Bugungi kunda aholi real daromadlarining ko‘payishi, urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, infratuzilma elementlarining takomillashuvi natijasida aholining shaxsiy avtomobillarga bo‘lgan ehtiyojlari ortib bormoqda. Markaziy Osiyodagi demografik salohiyati eng yuqori bo‘lgan mamlakatimizdagi dastlabki avtomobil zavodi Andijon viloyatining Asaka shahrida bunyod etilgan bo‘lib, zamonaviy sharoitda ushbu tarmoqning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish ahamiyatli hisoblanadi. Xususan, **M.O.Gopirov** tomonidan 2023-yili himoya qilingan PhD dissertatsiyasida Asaka avtomobil zavodining hududiy va tarmoq rivojlanish xususiyatlari hamda uning Farg‘ona mintaqasi iqtisodiyoti va sanoatining transformasiyasiga ta‘siri tahlil etilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sanoatning hududiy tuzilishidagi o‘zgarishlarni iqtisodiy-geografik o‘rganish metodologiyasini takomillashtirilganligi, sanoat ishlab chiqarish va atrof-muhitni boshqarishning hududiy tizimlarini ajratilganligi va tipologiyasini ishlab chiqilganligi bilan alohida e‘tirofga loyiq.

Globalashuv jarayonida rekreatsiya va turizm sohasining barqaror rivojlanishi uning nafaqat mintaqalar iqtisodiyotining yetakchi sektori sifatidagi o‘rnini, balki yangi ishchi o‘rinlarini yaratish va u bilan bog‘liq tarmoqlarni majmuaviy ravishda rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Shu jihatdan, rekreatsiya tarmoqlariga ehtiyoj juda yuqori bo‘lgan Farg‘ona mintaqasida sog‘lomlashtirish maskanlari misolida rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy geografik jihatlari bag‘ishlangan PhD dissertatsiyasi **Z.L.Abdualiyeva** tomonidan bajarilgan bo‘lib, 2024-yili falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga loyiq ko‘rilgan. Olima tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati rekreatsion-turistik imkoniyatlarini aniqlash, iqtisodiyotda va aholi salomatligini tiklash, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, hududning rekreatsiya resurslari va salohiyatidan turizmga foydalanishning metodik yondashuvlarini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Ta‘kidlash lozimki, Farg‘ona mintaqasining geografik, tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari atroflicha tahlil etilgan. Ularning ilmiy tadqiqotlari keyingi ilmiy ishlar uchun asos bo‘lib, ushbu noyob mintaqani batafsil o‘rganishga yordam beradi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib keltirish mumkinki, Farg‘ona mintaqasi iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar eng faol olib borilayotgan ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Respublika bo‘yicha hozirgacha bajarilgan doktorlik dissertatsiyalarining deyarli yarmi, nomzodlik dissertatsiyalarining 1/8 qismi va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining deyarli 1/4 qismi ushbu hududga to‘g‘ri keladi.

Ayni paytda, aholi joylashuvining landshaft-ekologik xususiyati, xorijiy investitsiyalar asosida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar va ularning iqtisodiy salohiyati, mashinasozlik sanoatining tarmoq-hududiy xususiyatlari, farmasevtika sanoati va yashil iqtisodiyotning geografik asoslari, qishloq xo‘jaligi klasterlari, turizm, zamonaviy aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iyerarxiyasi, anklav hududlardagi vektorli munosabatlar, jinoyatchilikning sotsial va hududiy jihatlari [10], etnomadaniyat va etnolingvistika kabi yo‘nalishlarda ko‘plab tadqiqotchilar DSc va PhD dissertatsiyalarini himoya qilish arafasida turibdi. Qolaversa, mintaqaning salohiyatidan kelib chiqqan holda kelajakda:

- ishlab chiqarish tarmoqlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida optimal joylashtirish;
- aholining sotsial xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlarini baholash;
- urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya oqimlari va ularning shahar infratuzilmasiga ta‘sirini tahlil qilish;
- iqtisodiy tengsizlikning sabab va oqibatlarini aniqlash va uni kamaytirish yo‘llarini ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha strategiya va siyosatni ishlab chiqish;
- raqamlashtirish va avtomatlashtirishning mehnat bozori va iqtisodiy tuzilmaga ta‘sirini o‘rganish;
- sun‘iy intellekt asosida ijtimoiy-iqtisodiy geografik kartalashtirish;
- mintaqalararo nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan mintaqaviy siyosat mexanizmlarini takomillashtirish kabi izlanishlarni amalga oshirish mumkin.

GEOGRAFIYA

Ushbu tadqiqotlar Farg'ona mintaqasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гадоев К., Бердиева С. Ўзбек география фани фидойилари. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2015. – 232 б.
2. Махамдалиев Р.Ю., Назаров М.И., Қодиров А.А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси илмий мактаби // Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетининг илмий мактаблари. – Т., 2008. – Б. 243-249.
3. Қодиров А.А. Ўзбекистонда иқтисодий географиянинг шаклланиши // Иқтидорли талабалар ва ёш олимларнинг республика илмий-амалий конф. мат. – Т., 2007. – Б. 50-51.
4. Солиев А.С. Ўзбекистонда география илми ва унинг географияси // Ўзбекистон География жамияти ахбороти / Илмий журнал, 44-жилд. – Т., 2014. – Б. 4-8.
5. Солиев А.С. Танланган асарлар / Масъул муҳаррир: Эгамбердиев А. – Т.: Mumtoz so'z нашриёти. – Б. 282–289.
6. Солиев А.С. Иқтисодий географик тадқиқотларда табиий географик омиллар ёхуд географик синтез ҳақида // Ўзбекистон География жамияти ахбороти / Илмий журнал, 45-жилд. – Т., 2015. – Б. 3-7.
7. Федорко В.Н., Қурбонов Ш.Б., Назаров М.И. Ўзбекистон Миллий университетида иқтисодий ва ижтимоий география. – Т., 2019. – 32 б.
8. Федорко В.Н., Дружинин А.Г., Стрелецкий В.Н. Социально-экономическая география в Узбекистане: история формирования, современные векторы и международный контекст развития // Известия Российской академии наук. Серия географическая. – М., 2020. № 84 (4). – С. 617–625.
9. Ҳикматов Ф.Ҳ., Федорко В.Н., Қурбонов Ш.Б. Ўзбекистон География жамияти ахборотида чоп этилган мақолаларнинг хронологик, системали ва алифбо кўрсаткичи (1-55 жилд, 1955-2019 йй.) // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – Т., 2019. – 248 б.
10. Komilova N.Q., Jumaxanov Sh.Z., Mirzaaxmedov X.S., Toshpo'latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya. – Т.: O'zMU, 2019.

Internet manbalari

11. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. URL: <https://www.natlib.uz/>
12. Российская государственная библиотека. URL: <https://search.rsl.ru/>